**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**JAVLIYEV SARVAR KURBONMIRATOVICH**

# HISOBLANUVCHI AJRATILUVCHI EKVIVALENTLIKLAR USTIDA ALGEBRAIK TIZIMLAR

**01.01.06 – Algebra**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**UDK: 510.5+510.6**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences**

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**JAVLIYEV SARVAR KURBONMIRATOVICH**

# HISOBLANUVCHI AJRATILUVCHI EKVIVALENTLIKLAR USTIDA ALGEBRAIK TIZIMLAR

**01.01.06 – Algebra**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attes komissiyasida B2023.1.PhD/FM842 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (http://www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Kasimov Nadimulla Xabibullayevich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Morozov Andrey Sergeyevich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| | **Xudoyberdiyev Abror Xakimovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Qozon federal universiteti (Rossiya)** |

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika Instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "06" fevral soat 17:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174,Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika Institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (177-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "19" yanvar kuni tarqatildi.
(2024 yil "19" yanvardagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

**U.A.Rozikov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,f.-m.f.d., akademik

**J.K.Adashev**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

**A.R.Hayotov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,f.-m.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi.** Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy hamda amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda hisoblanuvchi ajratiluvchi ekvivalentliklarni xossalarini o‘rganishni taqozo etmoqda. Ajratiluvchi nomerlash tushunchasini, o‘z algoritmlari bilan berilgan murakkab tizim tushunchasining matematik ta’riflashlaridan biri sifatida talqin qilish mumkin. Shu bilan birga, ajralitilish qobiliyati turli xil elementlarni algoritmik jihatdan aniqlangan mos atroflari bilan ajratish orqali tanib olish imkonini beradi. N.X.Kasimov nomerlangan universal algebrani hisoblanuvchi bo‘lishi uning negativ algebralar bilan approksimatsiyalanishiga teng kuchli bo‘ladi, ya’ni hisoblanuvchi ajratiluvchi algebralarning strukturaviy nazariyasini qurishda negativ algebralardan foydalanilishini isbotladi. Bundan tashqari, N.X.Kasimov negativ approksimatsiyalanuvchi algebralarni hisoblanuvchi ajratiluvchi kriteriyasi ixtiyoriy algebraik tizimlar uchun ham amal qilishini ko‘rsatdi; bunda munosabatning ixtiyoriy yolg‘onlik nuqtasi uchun rostlik sohasi bilan kesishmaydigan $\nu$-hisoblanuvchi atrofi mavjud bo‘lsa, bu munosabat $\nu$ tasvirlanishda hisoblanuvchi ajratiluvchi deyiladi.

Hozirgi vaqtda chiziqli tartiblangan to‘plam tushunchasi matematikaning fundamental obyekti bo‘lganligi uchun, ularning algoritmik xossalarini o‘rganishga tabiiy qiziqish uyg‘otadi. Chiziqli tartiblarni ko‘pgina tatbiqlarida, mazkur tartiblarga mos keladigan muayyan amallar tizimlari bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi. Xususan, endomorfizmli chiziqli tartiblar amallar aniqlangan chiziqli tartiblar orasida eng soddasidir. Xrestomatik misol sifatida natural sonlar to‘plamidagi tabiiy tartib va keyingisini mos qo‘yish funksiyasi, ya‘ni $S_{\leq} = \langle \omega; \leq, s \rangle$ tizimni, bu yerda $\leq$ natural sonlar to‘plamidagi tartib va $s(n) = n+1$, qarasak bo‘ladi. Presburger arifmetikasi $\langle \omega; s, + \rangle$ va Peano arifmetikasi $\langle \omega; s, +, \times \rangle$ standard modellarida tartib munosabati aniq kiritilmagan, lekin boshqa aksiomatikalashtirishlarda taklif qilinadi. Aynan endomorfizmli tartibning mavjudligi pozitiv, shuningdek, negativ algoritmik tasvirlanishlar sinflarida arifmetika standart modelining algoritmik tasvirlanishini yagonaligini (hisoblanuvchi izomorfizm aniqligida) ko‘rsatish imkonini beradi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda fundamental ilmiy va amaliy tadbiqlarga ega bo‘lgan dolzarb yo‘nalishlariga qiziqish ortib boradi. Nazariy informatika va abstrakt hisoblash nazariyasida tadqiqotning asosiy obyektlaridan biri pozitiv tizimlar hisoblansa ham negativ tasvirlanishlar pozitiv tasvirlanishdan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega. Boshqa tomondan, so‘zlarning tengligining hal etilmaydigan muammosi bo‘lgan har qanday cheklangan tizim (masalan, gruppa) pozitiv, lekin negativ tizim emas. Shunga qaramay, negativ tizimlar pozitiv tizimlar soyasida qolmoqda. “Algoritmlar nazariyasi” va “Hisoblanuvchanlik nazariyasi” fanlarining ustuvor yo‘nalishlarida jahon standartlari darajasida samarali signaturaning negativ algebraik tizimini tadqiq qilish ilmiy tadqiqotning asosiy maqsad va yo‘nalishlari sifatida belgilangan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi PQ-4387-sonli “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020 yil 7 maydagi PQ-4708-sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Hisoblanuvchi ajratiladigan algebralar hisoblanuvchi algebralar nazariyasida ham, nazariy informatika fanida ham muhim rol o‘ynaydi. A.I.Maltsev o‘zining ilmiy ishlarida faqat chekli indeksli nolga teng bo‘lmagan kongruensiyaga ega bo‘lgan chekli hosil qilingan ixtiyoriy pozitiv algebralari nomerlanishini hisoblanuvchi ekanligini ko‘rsatdi va umumiy holatda (chekli hosil qilinganlik shartisiz) ushbu tasdiqning to‘g‘riligi haqidagi savolni qo‘ydi. Ma‘lum bo‘lishicha, hisoblanuvchi ajratiluvchi algebralar sinfida inkor qiladigan misollar mavjud. Bundan tashqari, ixtiyoriy sanoqli kongruensiyalar panjaralik pozitiv nomerlangan algebralarning (xususan, Nyoter bo‘lganda) hisoblanuvchi ajratuvchi bo‘ladi. Yana bir misol, abstrakt ma’lumotlar turlari nazariyasidagi Bergstra-Takker muammosi, har qanday chekli hosil qilingan pozitiv algebra uchun chekli bazalangan ko‘pxilliklarni boshlang‘ich mavjudligi haqidagi muammodir. Ushbu muammoning negativ yechimi xarakteristik transversali immun bo‘lgan hisoblanuvchi ajratiluvchi pozitiv nomerlashga ega bo‘lgan chekli yaratilgan algebraning tegishli misolini taqdim etish orqali olingan.

Nomerlangan algebralar hisoblanuvchi bo‘lishi uchun uning negativ algebralar bilan approksimatsiyalanishi zarur va yetarlidir, ya‘ni hisoblanuvchi ajratiluvchi algebralarning alohida xususiyati, boshqa raqamlangan tizimlardan farqli o‘laroq, ularning negativ algebralar bilan approksimatsiyalanishi uchun negativ algebralar hisoblanuvchi ajratiluvchi algebralar orasidagi muhim o‘rin tutadi.

Algebra $S=\langle \omega ; s\rangle$ (tartib munosabatisiz) hisoblanuvchi bo‘lmagan negativ nomerlashga ega bo‘lsa ham, pozitiv tasvirlanishlarda turg‘un hisoblanuvchi bo‘ladi. Ma‘lumki, pozitiv tasvirlanuvchi, lekin hisoblanuvchi tasvirlanishga ega bo‘lmagan chiziqli tartibga Feynerning klassik mavjud. Osongina ko‘rsatish

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 maydagi «O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tatqiqot muasasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida»gi 292-sonli qarori

mumkinki, ixtiyoriy negativ tasvirlanadigan chiziqli tartiblar hisoblanuvchi tasvirlanishga ega bo‘ladi. Bundan endomorfizmli negativ tasvirlanadigan chiziqli tartiblar hisoblanuvchi tasvirlanishga ega ekanligi haqidagi prinsipial savol tug‘iladi. Birinchi bobda negativ tasvirlanadigan ikkita endomorfizmli chiziqli tartiblar pozitiv tasvirlanishga ega emasligi ko‘rsatilgan, lekin negativ tasvirlanadigan bitta endomorfizmli chiziqli tartiblar pozitiv tasvirlanishga ega ekanligi haqidagi savol hozirgacha yechilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot rejalariga muvofiq amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** hisoblanuvchi endomorfizmli chiziqli tartiblarning strukturaviy xossalari va ularning tasvirlanish darajalari nazariyasi doirasida negativ tasvirlanishlarini aniqlash, shuningdek, chekli universal algebralar va ularning hisoblanuvchi ajratiluvchi tasvirlanishlari orasidagi bog‘liqlikni o‘rnatishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

hisoblanuvchi avtomorfizmlarining yarim gruppasini gruppa bo‘lishini isbotlash yoki gruppa bo‘lmasligiga misol qurish;

pozitiv tasvirlanishga ega bo‘lmagan negativ tasvirlarga ega bo‘lgan endomorfizmli chiziqli tartiblarni tadqiq qilish;

endomorfizmli chiziqli tartiblarning negativ tasvirlanish darajalarining tuzilishini tavsiflash;

turli cheklilik shartlariga ega bo‘lgan, jumladan, chekli approksimatsiyalanuvchi, chekli va lokal chekli ajratiluvchi, lokal chekli universal algebralarning hisoblanuvchi ajratiluvchi algoritmik tasvirlanishlarini tadqiq qilish;

nomerlangan klassik tizimlarni (gruppa, xalqa, panjara, yarimgruppa) algoritmik xossalari va ularni ekvivalentlar ustidagi tasvirlanishlarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning obyekti.** Unar algebralar, endomorfizmli negativ chiziqli tartiblar, ularning tasvirlanish darajalari, hisoblanuvchi ajratiluvchi algebralar, shuningdek, klassik algebraik tizimlarning algoritmik tasvirlari.

**Tadqiqotning predmeti.** Hisoblanuvchanlik nazariyasi, algoritmlar nazariyasi, universal algebralar nazariyasi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida matematik mantiq, universal algebralar, modellar nazariyasi va algoritmlar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

hisoblanuvchi avtomorfizmlar yarim gruppasi gruppa bo‘lmaydigan, negativ unar algebraga oid misol keltirilgan;

endomorfizmli chiziqli tartiblarni taqqoslanmaydigan, minimal va maksimal negativ tasvirlanish darajalari topilgan hamda ularni cheksiz antizanjir tashkil qilishi isbotlangan;

Yu.L.Yershov ma’nosida nomerlashlarning keltirilishi va chiziqli tartiblarning negativ tasvirlanish darajalari o‘rtasida anti-izomorfizm qurilgan;

tekis hisoblanuvchi ajratiluvchi ekvivalentlik uchun uning xarakteristik transversalining immunligi ushbu ekvivalentlik ustida tasvirlanuvchi barcha algebralarning chekli approksimatsiyalanuvchiligi isbotlangan;

tekis m-ekvivalentlik tushunchasi kiritilgan va har qanday gruppani algoritmik tasvirlashining yadrosi tekis m-ekvivalent ekanligi isbotlangan hamda gruppaning ixtiyoriy nomerlashi qisman to‘liq bo‘lmasligi ko‘rsatilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi.** Dissertatsiya ishi nazariy xarakterga ega. Uning natijalarini ham modellar nazariyasi, universal algebralar va algoritmlar nazariyasida, ham Theoritical Computer Science qo‘llash mumkin. Xususan, chiziqli tartiblarning negativ tasvirlanish darajalaridan universal va quyida joylashgan (nomerlashning keltirilishiga nisbatan) tartiblangan ma’lumotlar strukturalarini algoritmik negativ tasvirlarini qurish uchun ishlatilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** matematik mantiq, algebra, to‘plamlar nazariyasi usullarini qo‘llash, shuningdek, matematik fikrlashning qat‘iyligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishida olingan ilmiy natijalar ham hisoblanuvchi algebralar nazariyasi, ham informatika fanining bir qator masalalarini yechishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pozitiv tasvirlanishga ega bo‘lmagan hisoblanuvchi endomorfizmli negativ chiziqli tartiblarni algoritmik xossalari va ularning negativ tasvirlanish darajalarini qurish orasidagi bog‘liqlikni o‘rnatish, shuningdek, algebralarni algoritmik masalalarini yechishda zarur bo‘ladigan ekvivalentlik ustidan tasvirlanadigan lokal chekli ajratiluvchi va chekli approksimatsiyalanuvchi algebralarning algoritmik kriteriyalarini topishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hisoblanuvchi ajratiluvchi ekvivalentliklar ustida algebraik tizimlar bo‘yicha olingangan natijalar asosida:

chiziqli tartiblarni tasvirlanish darajalaridan BV-M-F4-004 raqamli “Funksional jadvallar algebrasi asosi murakkab tizimlar boshqarishini algoritmlash prinsiplarini ishlab chiqish” mavzudagi fundamental loyihada murakkab tizimlarning monoton bul funksiyalari tizimini yechishda foydalanildi (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 17 noyabrdagi 04/11-7976-sonli ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo‘llanilishi umumiy xossalarga ega bo‘lgan kiruvchi parametrlarni sinflarga ajratish imkonini bergan;

klassik tizimlar nomerlashlarining algoritmik xossalari, endomorfizmli chiziqli tartiblarning negativ tasvirlanish darajalari strukturasi va ularning ekvivalentliklar ustida tasvirlanishidan 22-21-20024 raqamli “Yechilmaslikning darajalarining axborot ekspressivligi” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida endomorfizmli chiziqli tartiblarning negativ tasvirlanish darajalarini aniqlashda foydalanilgan (Volga federal okrugi matematik ilmiy-ta’lim markazining 2023 yil 14 noyabrdagi NP-01/11-sonli ma’lumotnomasi, Rossiya federatsiyasi). Ilmiy natijalarning qo’llanilishi negativ tasvirlanadigan endomorfizmli chiziqli tartiblarni taqqoslanmaydigan darajalarini topishni imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni

4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 98 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar mavjud.

**“Hisoblanuvchi endomorfizmli negativ chiziqli tartiblar”** nomli dissertatsiyaning birinchi bobida zarur tushunchalar va yordamchi natijalar keltirilgan. Ba‘zi tabiiy sinflarda pozitiv va negativ chiziqli tartiblangan unar algebralarning hisoblanuvchi ekanligi isbotlangan hamda hisoblanuvchi avtomorfizmlarning yarim gruppasi gruppa bo‘lmaydigan negativ unar mavjudligi isbotlangan.

Aytaylik, $\langle M;\Sigma\rangle$ – algebraik tizim va $\Sigma$ uning effektiv signaturasi bo‘lsin.

**1-ta‘rif.** Agar $\nu$ natural sonlar to‘plami $\omega$ ni $M$ to‘plamga akslantirishi uchun $\Sigma$-operatsiyalar tizimni ifodalaydigan $F$ hisoblanuvchi funksiyalarning hisoblanuvchi oilasi mavjud bo‘lsa, ya’ni ixtiyoriy $\sigma\in\Sigma$ uchun effektiv tarzda $f\in F$ hisoblanuvchi funksiya topilib, bunda $\sigma\nu\bar{x}=\nu f\bar{x}$ o‘rinli bo‘lsa, $\nu$ akslantirishga $M$ tizimining algoritmik tasviri (yoki nomerlashi) deyiladi.

$\eta$ ekvivalentlik $\omega$ da aniqlangan bo‘lsin. $\omega$ to‘plamning ba’zi $\eta$-sinflarining birlashmasi bo‘lgan $\alpha$ qism to‘plamiga (ya’ni $x\in\alpha$ $x=y(mod\eta)\rightarrow y\in\alpha$ ) $\eta$-yopiq to‘plam deyiladi.

**2-ta‘rif.** $\eta$ ekvivalent bo‘lmagan ixtiyoriy juftliklar uchun birini ikkinchisidan ajratadigan hisoblanuvchi $\eta$-yopiq to‘plam mavjud bo‘lsa, $\eta$ hisoblanuvchi ajratiluvchi ekvivalentlik deyiladi.

**3-ta‘rif.** $A$ algebraning $\nu$-nomerlarda effektiv qo‘llab-quvvatlanadigan $\varphi$ endomorfizmiga (avtomorfizmiga) $\nu$-hisoblanuvchi (ya’ni $A$ algebraning $\nu$ tasvirlanishida hisoblanuvchi bo‘lgan) endomorfizm (avtomorfizm) deyiladi. Boshqacha aytganda, shunday $f:\omega\rightarrow\omega$ hisoblanuvchi funksiya mavjudki, bunda

$\varphi\nu = \nu f$ o‘rinli.

**1-jumla.** Ixtiyoriy nomerlangan tizimlarning endomorfizmlari to‘plami birga ega bo‘lgan yarim gruppani tashkil qiladi.

Ravshanki, ixtiyoriy pozitiv algebralarning hisoblanuvchi avtomorfizmlari yarim gruppasi gruppa tashkil qiladi. Shuningdek, hisoblanuvchi avtomorfizmlar to‘plami gruppa tashkil qilishining ba‘zi yetarli algebraik shartlari mavjud. Masalan, agar tizimning avtomorfizmlari gruppasi davriy bo‘lsa, u holda ushbu tizimning har qanday tasvirlanishi uchun bu yarim gruppa gruppa bo‘ladi.

**1-teorema.** Hisoblanuvchi avtomorfizmini teskarisi hisoblanuvchi bo‘lmaydigan negativ unar mavjud.

**1-natija.** Hisoblanuvchi avtomorfizmlarning yarim gruppasi gruppa bo‘lmaydigan negativ unar mavjud.

$\eta$ ekvivalentlik $\omega$ da aniqlangan bo‘lsin.

**4-ta‘rif.** $\{\langle x, y\rangle \mid x = y \pmod{\eta}\}$ to‘plam hisoblanuvchi (sanaluvchi, kosanaluvchi) bo‘ladigan $\eta$ ekvivalentlikka hisoblanuvchi (pozitiv, negativ) ekvivalentlik deyiladi.

**5-ta‘rif.** Ixtiyoriy turli juftliklarini ajratuvchi $\nu$-hisoblanuvchi to‘plami mavjud bo‘ladigan nomerlangan $(A,\nu)$ algebraga hisoblanuvchi ajratiluvchi algebra deyiladi.

**6-ta‘rif.** Barcha $x \neq y(\operatorname{mod} ker(\nu))$ elementlar uchun shunday qismiy hisoblanuvchi $g(x, y, z)$ funksiya topilib, bunda $\lambda z.g(x, y, z)$ funksiya $x$ ni $y$ elementdan ajratuvchi $ker(\nu)$-yopiq to‘plamning xarakteristik funksiyasi bo‘lsa, $(A,\nu)$ nomerlangan algebraga tekis hisoblanuvchi ajratiluvchi algebra deyiladi.

Ma‘lumki, hisoblanuvchi tasvirlanishga ega bo‘lmagan pozitiv tasvirlanuvchi chiziqli tartiblar mavjud. Boshqa tarafdan, ixtiyoriy negativ tasvirlanuvchi chiziqli tartiblar hisoblanuvchi tasvirlanishga ega ekanligi ravshan. Shuning uchun, endomorfizmlar bilan negativ tasvirlanuvchi chiziqli tartiblarning hisoblanuvchi tasvirlarining mavjudligi masalasi fundamental ahamiyatga ega.

**2-teorema.** Pozitiv tasvirlanishga ega bo‘lmagan ikkita endomorfizmli negativ tasvirlanuvchi chiziqli tartib mavjud.

**2-natija.** Hisoblanuvchi tasvirlanishga ega bo‘lmagan endomorfizmli negativ tasvirlanuvchi chiziqli tartib mavjud.

“**Chiziqli tartiblar darajalari**” deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida chiziqli tartiblarning negativ tasvirlanish darajalarining qisman tartiblangan to‘plami tuzilishi o‘rganilgan. Asosiy e‘tibor endomorfizmli chiziqli tartiblarning negativ tasvirlanishiga qaratilgan. Xususan, bu strukturalar uchun taqqoslanmaydigan, maksimal va minimal darajalar, cheksiz zanjirlar va antizanjirlarning mavjudligi aniqlangan. Chiziqli tartiblarning manfiy tasvirlanish darajalari to‘plamida $1+\omega^{*}$ tartibli ordinalga izomorf zanjir borligi ko‘rsatilgan.

$\eta_0, \eta_1$ – ekvivalentliklar $\omega$ da aniqlangan bo‘lsin. Agar $x = y(\operatorname{mod}\eta_0) \Leftrightarrow g(x) = g(y)(\operatorname{mod}\eta_1)$ va $\forall y \exists x(g(x) = y \pmod{\eta_1}))$ shartlarni qanoatlantiradigan $g$ hisoblanuvchi funksiya mavjud bo‘lsa, u holda $\eta_0$

ekvivalentlik $\eta_1$ ga $m$-keltiriladi deyiladi. Mazkur yondashuv nomerlashlar nazariyasi mafkurasiga asoslanadi. Bunday $g$ funksiyaga $\eta_0$ ni $\eta_1$ ga $m$-keltiruvchi deyiladi. Agar $\eta_0 \leqslant_m \eta_1 \wedge \eta_1 \leqslant_m \eta_0$ bo‘lsa, $\eta_0 \equiv_m \eta_1$ deb olamiz. U holda $\equiv_m$ ekvivalentlik bo‘ladi, to‘g‘ri aniqlangan $\leqslant_m$ indutsirlangan qisman tartib sinflarini ham xuddi shu kabi belgilaymiz. Odatdagidek, $\{\eta' \mid \eta \equiv_m \eta'\}$ to‘plamni ekvivalentlikning ($d_m(\eta)$ belgilashda) $m$-darajasi deb ataymiz.

**2-jumla.** Agar pozitiv (negativ) chiziqli tartib negativ (pozitiv) ekvivalentlik ustida tasvirlansa, u holda tartib ham, ekvivalentlik ham hisoblanuvchi bo‘ladi.

$\eta$ negativ ekvivalentlik ustida negativ tasvirlanuvchi barcha chiziqli tartiblarni $L(\eta)$ orqali belgilaymiz, ya’ni shu kabi strukturalarning izomorf tiplari va $\omega$ dagi barcha negativ ekvivalentlar to‘plami $\Pi$ da quyidagicha binar munosabat kiritamiz $\leqslant_{ln}$:

$$\eta_1 \leqslant_{ln} \eta_2 \Leftrightarrow L(\eta_1) \subseteq L(\eta_2),$$

bunda $\Pi$ to‘plamda qism tartib va uning simmetrik yopilmasi $\equiv_{ln}$ - ekvivalentlik bo‘ladi, faktorlash esa barcha negativ tasvirlanuvchi ekvivalentliklarni $\equiv_{ln}$ ustida ekvivalentlik sinflarga bo‘ladi. $\langle \Pi / \equiv_{ln}; \leqslant_{ln} \rangle$ qisman tartibga *chiziqli tartiblarning negativ tasvirlanish strukturalari*, uning elementlarini esa *chiziqli tartiblarning negativ tasvirlanish darajalari* deyiladi.

Barcha endomorfizmlari hisoblanuvchi, $\nu$-nomerlari to‘plamining tenglik va tartib munosabati hisoblanuvchi (pozitiv, negativ) bo‘lgan nomerlangan ekvivalentligi $\eta$ ga teng bo‘lgan $\nu$ nomerlash mavjud bo‘lsa, u holda $\varepsilon_0, \varepsilon_1 \ldots$ endomorfizmli $\langle L; \leq, \varepsilon_0, \varepsilon_1 \ldots \rangle$ chiziqli tartibga $\omega$ natural sonlar to‘plamidagi $\eta$ ekvivalentlik ustida hisoblanuvchi (pozitiv, negativ) tasvirlanadi deyiladi.

$\eta$ negativ ekvivalentliklar ustida negativ tasvirlanuvchi barcha endomorfizmli chiziqli tartiblarni $L_e(\eta)$ orqali belgilaymiz va negativ ekvivalentlar to‘plami $\Pi$ da quyidagicha binar munosabat kiritamiz $\leqslant_{ln-e}$:

$$\eta_1 \leqslant_{ln-e} \eta_2 \Leftrightarrow L(\eta_1) \subseteq L(\eta_2),$$

bunda $\Pi$ to‘plamda qism tartib va uning simmetrik yopilmasi $\equiv_{ln-e}$ - ekvivalentlik bo‘ladi, faktorlash esa barcha negativ tasvirlanuvchi ekvivalentliklarni $\equiv_{ln-e}$ ustida ekvivalentlik sinflarga bo‘ladi. $\langle \Pi / \equiv_{ln-e}; \leqslant_{ln-e} \rangle$ qisman tartibga *endomorfizmli chiziqli tartiblarning negativ tasvirlanish strukturalari*, uning elementlarini esa *endomorfizmli chiziqli tartiblarning negativ tasvirlanish darajalari* deyiladi.

O‘tgan bobdagi 2-teoremadan quyidagi natijalar kelib chiqadi.

**3-natija.** Endomorfizmli negativ tasvirlangan chiziqli tartiblarning taqqoslanmaydigan darajalari mavjud.

**4-natija.** Qisman tartiblangan $\langle \Pi / \equiv_{ln-e}; \leqslant_{ln-e} \rangle$ darajalar to‘plami yuqori yarim panjarani tashkil qilmaydi.

**3-jumla.** $\equiv_{ln-e} \subseteq \equiv_m$.

**4-jumla.** $\leqslant_{ln-e} \subsetneqq \leqslant_m$. Negativ $m$-darajalar to‘plamida eng kichik element mavjud va $d_{ln-e}(id\ \omega)$ daraja $\leqslant_{ln-e}$ tartibga nisbatan maksimal element.

Bilamizki, ixtiyoriy turli ikkita elementi taqqoslanmaydigan qisman tartiblangan to‘plam antizanjir deyiladi.

**3-teorema.** Shunday $\eta_0, \eta_1, \ldots,$ negativ ekvivalentliklar ketma-ketligi mavjudki, bunda mos $m$-darajalar ketma-ketligi $\leqslant_m$ tartibga nisbatan $\omega$ tip bo‘yicha qat‘iy o‘suvchi, $ln$-darajalar ketma-ketligi $\leqslant_m$ tartibga nisbatan $\omega^*$ tip bo‘yicha qat‘iy kamayuvchi (bunda tabiiy moslashtirish $\{d_m(\eta_n)\} \to \{d_{ln}(\eta_n)\}$ – antiizomorfizm) bo‘ladi, $ln-e$-darajalar ketma-ketligi esa $\leqslant_{ln-e}$ tartibga nisbatan antizanjir tashkil qiladi.

“**Chekli approksimatsiyalanuvchi algebralarning hisoblanuvchi ajratiluvchi nomerlashi**” deb nomlangan dissertatsiyaning uchinchi bobida tekis hisoblanuvchi ekvivalentliklar ustida tasvirlanadigan har qanday algebraning chekli approksimatsiyalanishi ushbu ekvivalentlikning xarakteristik transversalining immunligiga ekvivalent ekanligi aniqlangan. $\alpha^2 \cup id\ \omega$ ko‘rinishidagi ekvivalentliklar ustida tasvirlanadigan algebralarning lokal chekli ajratiluvchanligi, $\alpha$ to‘plamning to‘ldiruvchisi immunligiga teng kuchliligi ko‘rsatilgan.

Bilamizki, $(A,\mu)$, $(B,\nu)$ – nomerlangan algebralar bo‘lsa, u holda nomerlarda effektiv bo‘lgan $\varphi: A \to B$ gomomorfizmga morfizm deyiladi, ya’ni shunday hisoblanuvchi funksiya mavjudki, bunda $\varphi\mu = \nu f$ o‘rinli. $\mathfrak{B} = \{(B_i, \nu_i) \mid i \in I\}$ – nomerlangan algebralar oilasi bo‘lib, $(A,\mu)$ nomerlangan algebraning ixtiyoriy elementlari $a_0, a_1 \in A$ uchun $(A,\mu)$ algebrani mos turli $\mathfrak{B}$-algebralarga akslantiruvchi shunday $\varphi_{\{a_0,a_1\}}$ morfizm topilsaki, u holda $(A,\mu)$ algebrani $\mathfrak{B}$-algebraga approksimatsiyalanadi deyiladi (ya’ni $\varphi_{\{a_0,a_1\}}(a_0) \neq \varphi_{\{a_0,a_1\}}(a_1)$).

$\alpha \subseteq \omega$ bo‘lsin. U holda:

1) $\eta^\alpha = \{\langle 2x, 2x+1\rangle \mid x \in \alpha\rangle\} \cup \{\langle 2x+1, 2x\rangle \mid x \in \alpha\rangle\} \cup id\ \omega$;

2) $\eta_\alpha = \alpha^2 \cup id\ \omega$.

**5-jumla.** Ixtiyoriy $\alpha \subseteq \omega$ to‘plam uchun $\eta^\alpha$ ekvivalentlik tekis hisoblanuvchi ajratiluvchi bo‘ladi.

**7-ta‘rif.** Ixtiyoriy (chekli hosil qilingan) qism algebrasi $A_0$ va ixtiyoriy $a \in A \setminus A_0$ elementi uchun chekli indeksli kongruensiya topilsaki, $a$ element $A_0$ qism algebraning barcha elementlaridan modul bo‘yicha farq qilsa, $A$ universal algebraga (lokal) chekli ajratiluvchi algebra deyiladi.

**4-teorema.** Ixtiyoriy kocheksiz $\alpha \subseteq \omega$ to‘plamlar uchun quyidagi shartlar teng kuchli:

(1) $tr(\eta_\alpha)$ – immun;

(2) ixtiyoriy $tr(\eta_\alpha)$–algebra chekli approksimatsiyalanadi;

(3) ixtiyoriy $tr(\eta_\alpha)$–algebra lokal chekli ajratiluvchi.

**5-teorema.** Cheksiz tekis hisoblanuvchi ajratiluvchi $\eta$ ekvivalentliklar uchun quyidagi shartlar teng kuchli:

(1) xarakteristik transversali $tr(\eta)$ immun;

(2) $\eta$ ustida tasvirlanuvchi ixtiyoriy algebralar chekli approksimatsiyalanuvchi bo‘ladi.

“**Gruppalar va panjaralarning nomerlanishi**” deb nomlangan dissertatsiyaning to‘rtinchi bobida natural sonlar to‘plamidagi ekvivalentlik munosabati ustida algebraik strukturalarni tasvirlanish muammolari ko‘rilgan. Bundan tashqari N.X.Kasimov tomonidan kiritilgan tekis m-ekvivalentlik tushunchasi o‘rganilgan. Ixtiyoriy nomerlangan gruppaning nomerlangan ekvivalentligi tekis m-ekvivalentlik bo‘lishi isbotlangan. Boshqa tarafdan, hech qanaqa gruppa tasvirlanmaydigan tekis m-ekvivalentlikka misol keltirilgan.

**8-ta‘rif.** Shunday hisoblanuvchi funksiyalarning oilasi (hisoblanuvchi funksiyalarning sanaluvchi oilasi) mavjud bo‘lsaki, $\eta$ ekvivalentlik bo‘yicha $\omega/\eta$ faktor-to‘plamlarning indutsirlangan almashtirishlarida ixtiyoriy $x, y$ natural sonlar juftliklari uchun $\{x\}/\eta$ sinf $\{y\}/\eta$ sinfga $f \in F$ funksiya yordamida $m$-keltirilsa, bunday ekvivalentlikka $m$-ekvivalentlik (tekis $m$-ekvivalentlik) deyiladi.

**6-teorema.** Agar $(G,\nu)$ – nomerlangan gruppa bo‘lsa, u holda uning nomerlashining $ker(\nu)$ yadrosi tekis $m$-ekvivalent bo‘ladi.

**6-jumla.** $\omega$ ni cheksiz sondagi orbitalarga bo‘luvchi chekli sikllarga ega bo‘lmagan $f$ hisoblanuvchi almashtirishlar uchun kontinuum tekis $m$-ekvivalentlar mavjudki, bunda $F_f$ hisoblanuvchi oila $m$-keltiriladi.

**7-jumla.** Yadrosi hisoblanuvchi bo‘lmagan pozitiv nomerlangan ixtiyoriy gruppaning barcha sinflari hisoblanuvchi izomorf bo‘ladi (ya‘ni $\omega/\eta$, faktor-to‘plamlarda indutsirlangan almashtirishlarda yadroning ixtiyoriy qo‘shni sinflarining biridan ikkinchisiga akslantiruvchi hisoblanuvchi almashtirish mavjud). Bunda, $\omega/\eta$ faktor-to‘plamlarda $\{x\}/\eta$ sinfni $\{y\}/\eta$ sinfga akslantiruvchi $x, y$ ga bog‘liq bo‘lgan $\omega$ da hisoblanuvchi izomorfizmning xarakteristik indeksini tekis effektiv qurish tartibi mavjud.

**9-ta‘rif**. Agar chekli sikllarga ega bo‘lmagan hisoblanuvchi almashtirishlarni cheksiz sondagi orbitalaridan aynan bittadan elementni o‘z ichiga oluvchi to‘plamga hisoblanuvchi tiklanuvchi to‘plam deyiladi.

**8-jumla.** Ixtiyoriy cheksiz, kocheksiz va kosanaluvchi to‘plamlar hisoblanuvchi tiklanuvchi to‘plam bo‘ladi.

**9-jumla.** Kontinuum hisoblanuvchi tiklanuvchi to‘plamlar mavjud.

**5-natija.** Kontinuum tekis $m$-ekvivalentliklar mavjud.

**10-jumla.** Hech qanaqa gruppa tasvirlanmaydigan tekis $m$-ekvivalentlik mavjud.

## XULOSA

Dissertatsiya ishida tartiblangan unarlarning algoritmik tasvirlari, hisoblanuvchi endomorfizmli chiziqli tartiblar, endomorfizmli chiziqli tartiblar darajalari, chekli approksimatsiyalanadigan algebralarning hisoblanuvchi ajratiluvchi nomerlashlari, $\alpha^2 \cup id\,\omega$ ekvivalentliklar ustida tasvirlanadigan lokal chekli algebralarni algoritmik kriteriyalari o‘rganildi, shuningdek, klassik tizimlar (gruppalar, xalqalar, maydonlar) nomerlashining ayrim algoritmik atributlari topildi.

Dissertatsiya ishida quyidagi asosiy natijalar olindi:

1. Hisoblanuvchi avtomorfizmlari yarim gruppasi gruppa bo‘lmaydigan negativ unar mavjudligi isbotlangan;
2. pozitiv tasvirlarga ega bo‘lmagan ikkita hisoblanuvchi endomorfizmlar bilan negativ chiziqli tartib qurilgan;
3. endomorfizmli chiziqli tartiblarning solishtirilmaydigan negativ tasvirlanish darajalari va ularning cheksiz antizanjirlar mavjudligi aniqlangan. Shu bilan birga chiziqli tartiblarning cheksiz negativ tasvirlanish darajalar zanjirlarini mavjudligi isbotlangan;
4. berilgan ekvivalentliklar ustida tasvirlanuvchi chekli approksimatsiyalanish va lokal chekli ajratilish xossalariga ega universal algebralarning algoritmik kriteriyasi topilgan;
5. ixtiyoriy nomerlangan gruppani nomerlangan ekvivalentligi tekis m-ekvivalentlik bo‘lishi ko‘rsatilgan va ustida hech qanday gruppa tasvirlanmaydigan effektiv $T_1$-ajratiluvchi tekis m-ekvivalentlik misoli taqdim etilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.FM.86.01**
**ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ**
**ИНСТИТУТЕ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**ДЖАВЛИЕВ САРВАР КУРБОНМИРАТОВИЧ**

# АЛГЕБРАИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ НАД ВЫЧИСЛИМО ОТДЕЛИМЫМИ ЭКВИВАЛЕНТНОСТЯМИ

**01.01.06 – Алгебра**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD)**
**ПО ФИЗИКО-МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент-2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, Наука и Инноваций Республики Узбекистан за № B2023.1.PhD/FM842.**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана им. Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу http://kengash.mathinst.uz и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу http://www.ziyonet.uz.

| | |
|---|---|
| **Научный руководитель:** | **Касымов Надимулла Хабибуллаевич**<br>доктор физико-математических наук, профессор |
| **Официальные оппоненты:** | **Морозов Андрей Сергеевич**<br>доктор физико-математических наук, профессор |
| | **Худойбердиев Аброр Хакимович**<br>доктор физико-математических наук, профессор |
| **Ведущая организация:** | **Казанский федеральный университет (Россия)** |

Защита диссертации состоится «06» февраля 2024 года в 17:00 часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 при Институте Математики имени В.И.Романовского. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9.Тел.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института Математики имени В.И.Романовского (зарегистрирована за № 177). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 9.Тел.: (+99871) 207-91-40.)

Автореферат диссертации разослан «19» января 2024 года.
(протокол рассылки № 2 от «19» января 2024 года).

**У.А.Розиков**
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., академик

**Ж.К.Адашев**
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., старший научный сотрудник

**А.Р.Хаётов**
Заместитель председателя научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD)

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Многие научные и практические исследования, проводимые во всем мире, очень часто сводятся к изучению вычислимых отделимых эквивалентностей. Понятие отделимой нумерации можно трактовать как одно из математических уточнений понятия сложной системы, заданной алгоритмами своего развития. При этом, отделимость позволяет распознавать различные элементы путем разделения их подходящими алгоритмически определяемыми окрестностями. Н.Х. Касымов доказал, что вычислимая отделимость нумерованной универсальной алгебры равносильна ее аппроксимируемости негативными, т.е. негативные алгебры образуют тот строительный материал, на котором базируется структурная теория вычислимо отделимых алгебр. Более того, как показано Н.Х.Касымовым критерий вычислимой отделимости как аппроксимируемости негативными справедлив и для произвольных алгебраических систем; при этом, отношение называется вычислимо отделимым в представлении $\nu$ если всякая точка его ложности имеет $\nu$-вычислимую окрестность, не пересекающуюся с областью истинности этого отношения.

В настоящее время понятие линейно упорядоченного множества является фундаментальным объектом математики, что обуславливает естественный интерес к изучению алгоритмических свойств линейных порядков. Во многих приложениях линейные порядки рассматриваются вместе с некоторыми системами операций, согласованных с порядком. В частности, простейший случай линейного порядка с операциями задают линейные порядки с их эндоморфизмами. Хрестоматийным примером такого рода является натуральный ряд с его естественным порядком и функцией следования, т.е. система $S_{\leq} = \langle \omega; \leq, s \rangle$, где $\omega$ обозначает множество натуральных чисел, $\leq$ - естественный порядок на $\omega$ и $s(n) = n+1$. Стандартные модели арифметики Пресбургера $\langle \omega; s, + \rangle$ и арифметики Пеано $\langle \omega; s, +, \times \rangle$ не содержат в явном виде отношение порядка, которое предлагается в некоторых других аксиоматизациях. Как будет показано ниже, именно наличие порядка с эндоморфизмом позволяет показать единственность (с точностью до вычислимого изоморфизма) алгоритмического представления стандартной модели арифметики как в классе позитивных, так и в классе негативных алгоритмических представлений.

В нашей стране в последние годы усилился интерес к актуальным направлениям фундаментальных наук, имеющих научное и практическое применение. Негативные представления алгебраических систем можно считать не менее приоритетными, чем позитивные, хотя, например, в теоретической информатике и теории абстрактной вычислимости именно позитивные системы считаются одними из главных объектов исследования. С другой стороны, любая конечно-определенная система (например - группа) с неразрешимой проблемой равенства слов дает естественный пример позитивной, но не негативной системы. Тем не менее, негативные системы остаются в тени позитивных. Исследования негативных алгебраических систем эффективных сигнатур на уровне мировых стандартов по приоритетным направлениям дисциплин «Теория алгоритмов» и «Теория вычислимости» обозначены как основные цели и направления научных исследований[1].

